

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA’LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI**



**“TASDIQLAYMAN”**  
Qo‘qon universiteti rektori  
D.Sh Xodjayeva  
30-iyun 2025 yil

**YANGI TAHRIRDAGI O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**KONSTITUTSIYAVIY**  
**FANINING O‘QUV DASTURI**

**Bilim sohasi:** 100000 – Ta’lim  
**Ta’lim sohasi:** 11000 – Ta’lim  
**Ta’lim yo‘nalishi:** Barcha bakalavriyat ta’lim yo‘nalishlari

**Qo‘qon – 2025**

<b>Fan/modul kodi</b> YTO'RK2304	<b>O'quv yili</b> 2025-2026	<b>Semestr</b> 3/4	<b>ECTS-Kreditlar</b> 4	
<b>Fan/modul turi</b> Tanlov	<b>Ta'lim tili</b> O'zbek/rus		<b>Haftadagi dars soatlari</b> 4	
1.	<b>Fanning nomi</b>	<b>Auditoriya mashg'ulotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta'lim (soat)</b>	<b>Jami yuklama (soat)</b>
	<b>Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi</b>	60	60	120
2.	<p><b>I. Fanning mazmuni.</b></p> <p><b>Fanni o'qitishdan maqsad</b> – Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, uning mazmun mohiyati, Konstitutsiyaviy islohatlatning xususiyati to'g'risidagi tasavvurlarni shakllantirishdan iborat. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya Yangi O'zbekiston strategiyasini amalga oshirishning siyosiy-huquqiy asoslarini yaratib, milliy davlatchilik taraqqiyotining tarixiy muhim bosqichida davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab beradi. Bunga qadar 1992 yildan buyon konstitutsiyaga jami 15 marta o'zgartish kiritilgan edi. Bu safar esa o'zgarishlar ko'lamini kattaligi sabab hujjatning yangi tahriri qabul qilindi. Yangilanish natijasida, bosh qomusdagi moddalar soni 128 tadan 155 taga, undagi normalar esa 275 tadan 434 taga oshdi. Umuman, rasmiylarga ko'ra, konstitutsiya 65 foizga yangilangan. Konstitutsiyada davlat qurilishining yangi strategik maqsadi – ijtimoiy davlat qurish ekanligi belgilab berildi, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari joriy etildi, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning mutlaqo yangi mexanizmlarini nazarda tutuvchi konstitutsiyaviy asoslar mustahkamlandi. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini so'zsiz va to'liq amalga oshirish, unda mustahkamlangan ustuvor prinsiplarni Yangi O'zbekiston ulug'vor g'oyasiga hamohang tarzda ro'yobga chiqarish, davlat organlarining faoliyatini yangicha konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitlarda yo'lga qo'yish, fuqarolar o'z hayotida xalq Konstitutsiyasi ruhini yaqqol his etib turishini ta'minlashni maqsad qiladi.</p> <p><b>Fanning yetakchi TOP-300 xalqaro universitetlari dasturi asosida tayyorlanganligi:</b></p> <p>Mazkur fan dasturi dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalaridan biri bo'lgan Manchester universiteti (Buyuk Britaniya)ning "Constitutional law" moduliga asoslangan holda ishlab chiqilgan. Mazkur universitet QS World University Rankings 2024 reytingida 32-o'rinni egallagan bo'lib, huquq va kriminologiya sohasi bo'yicha yuqori malakali ilmiy-uslubiy bazaga ega.</p> <p>Dastur quyidagi tamoyillarga asoslanadi:</p> <p><b>Nazariya va amaliyot uyg'unligi</b> – jinoyat nazariy tushunchalari bilan bir qatorda real ijtimoiy jarayonlar va sud amaliyotini tahlil qilish.</p> <p><b>Xalqaro standartlarga moslik</b> – kurs Britaniya "Common Law" tizimidagi yondashuvlar hamda xalqaro huquqiy normalar asosida boyitilgan.</p>			

**Tanqidiy fikrlash** – talabalar jinoyatga oid ijtimoiy muammolarni mustaqil tahlil qilish, dalillarga asoslangan xulosa chiqarishni o‘rganadilar.

**Interfaollik** – seminar, keys-study, guruh ishlari, taqdimot va tadqiqot loyihalari orqali bilimlarni chuqurlashtirish

**Fanning vazifasi** – Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, uning mazmun mohiyati, Konstitutsiyaviy islohatlatning xususiyatini o‘rganib, ijtimoiy munosabatlarni yanada to‘g‘riroq tartibga solish, ularning rivojlanishiga imkon beradigan huquq normalarini yaratish, mavjudlarini takomillashtirish. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyani so‘zsiz va to‘liq amalga oshirish barcha darajadagi davlat organlari va tashkilotlarining birinchi navbatdagi ustuvor vazifasi etib belgilan, shuningdek barcha ta‘lim yo‘nalishlarida o‘quvchi – talabalarga, tinglovchilarga pedagog kadrlar tomonidan o‘quv kurslari va seminarlar tashkil etish vazifalari yuklatilgan.

## **II. Nazariy qism (ma‘ruza mashg‘ulotlari)**

### **II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

#### **I – MODUL. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi**

##### **1-mavzu. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi va “Inson qadri uchun” degan ezgu g‘oyani ro‘yobga chiqarish asoslari.**

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishiga bo‘lgan zarurat. Yangi Konstitutsiyasi xalqimiz muallifligida yaratilishi. Konstitutsiyada jahon konstitutsiyaviy rivojlanish tajribalari hamda milliy qadriyatlarning aks etishi. Konstitutsiyaning tuzilishi. “Inson qadri uchun” degan ezgu g‘oyani ro‘yobga chiqarish maqsad qilingan. “Konstitutsiyaning yagona manbai va muallifi — xalqdir” tamoyili.

##### **2-mavzu. Yangilangan Konstitutsiya taraqqiy etgan davlat – Yangi O‘zbekistonni qurish g‘oyasi va Konstitutsiyaning asosiy prinsiplari**

Konstitutsiyaning yangi tahriri Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida yangi davrni boshlab beradi. Davlat suvereniteti va uning konstitutsiyaviy asoslari. Xalq hokimiyatchiligining konstitutsiyaviy asoslari. Konstitutsiya va qonunning ustunligi. Tashqi siyosatning konstitutsiyaviy asoslari

##### **3-mavzu. “Yangi Konstitutsiyada fuqarolarning huquq va erkinliklar kafolati”**

“Miranda qoidasi” va “Xabeas korpus” instituti. Inson huquqlari va fuqaro huquqlari, erkinlik, majburiyat tushunchalari. Inson huquqlari turlari. Shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar . Huquq va erkinliklarning konstitutsiyaviy cheklanishi. Huquq va erkinlik kafolatlari.

#### **4-mavzu. Fuqarolarning konstitutsiyaviy burchlari**

Konstitutsiya va qonunlarga rioya etish. Boshqalarning huquq va erkinliklarini hurmat qilish. Tarixiy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy merosini asrash. Atrof tabiiy muhitga extiyotkorona munosabatda bo'lish. Soliq va yig'implarni to'lash. Vatanni himoya qilish himoya qilish.

#### **5-mavzu. O'zbekiston Respublikasida fuqarolik**

Shaxsning konstitutsiyaviy maqomi. Fuqarolik tushunchasi. Yagona fuqarolik. Fuqarolarning tengligi. Fuqarolikka ega bo'lish asoslari. Fuqarolikni yo'qotish. Fuqarolar huquqlarini himoya qilish. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquqiy holati. Fuqarolik masalalari bilan shug'ullanuvchi davlat organlari.

### **II – MODUL. «O'zbekiston — ijtimoiy davlat». Shaxs va jamiyat**

#### **6-mavzu. Xususiy mulk himoyasi hamda tadbirkorlar huquq va erkinliklarining konstitutsiyaviy kafolatlari.**

Mulk shakllari va teng huquqligi. Xususiy mulkni daxlsizligi va davlat tomonidan himoya qilinishi. Iqtisodiy faoliyat tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligi. Istemolchi huquqlarining ustunligi. Mulkka egalik qilish va mulkdan maxrum qilish asoslari. Umummilliy boyliklar va ulardan foydalanish hamda muhofaza qilish.

#### **7-mavzu. Insonparvar va demokratik huquqiy davlat qurishda fuqarolik jamiyatining o'rni.**

Fuqarolik jamiyati institutlari va ularning faoliyati qonunga muvofiq amalga oshirilishi. Jamoat birlashmalari. Kasaba uyushmalari. Siyosiy partiyalarning hokimiyatda ishtiroki. Konstitutsiyaviy tuzumga qarshi faoliyat yurituvchi birlashmalar tuzishning ta'qiqlanishi. Yoshlar tashkilotlari. Davlat va diniy tashkilotlar munosabati. Fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish, qonunchilik takliflarini kiritish institutini joriy etish.

#### **8-mavzu. Oila institutining konstitutsiyaviy asoslarini rivojlantirish masalalari**

Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini. Oilaning jamiyat va davlat tomonidan muhofaza qilinishi. Nikoh tuzish asoslari. Ota-onalarning voyaga yetmagan farzandlar oldidagi majburiyati. Davlatning ota-onalar vasiyligidan mahrum bo'lgan hamda yetim bolalarni boqish, tarbiyalash, o'qitish vazifasi. Onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinishi. Davlatning yoshlar huquqlari himoya qilinishini ta'minlashi. Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlarning ota-onalariga g'amxo'rlik qilishga majburligi. Ommaviy axborot vositalari.

#### **9-mavzu. O'zbekistonning ma'muriy-hududiy tuzilishi.**

O‘zbekistonning davlat tuzilishi shakli. O‘zbekistonning ma‘muriy-huquqiy tuzilishi. Ma‘muriy-huquqiy birliklarni tashkil etish va tugatish tartibi. Qoraqalpog‘iston respublikasi. Respublika bo‘ysunuvidagi shaharlar. Viloyat bo‘ysunuvidagi shaharlar, tuman bo‘ysunuvidagi shaharlar, shaharlardagi tumanlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullar.

#### **10-mavzu. Erkin saylovlar fuqarolik jamiyatining asosiy belgisi.**

Saylov tizimi va saylov huquqi tushunchasi. Saylov huquqi prinsiplari. Saylovlarda erkinlikni ta‘minlash. Saylov jarayoni va subyektlari. Saylov senzleri. Saylov o‘tkazish muddatlari. Saylov kampaniyasini e‘lon qilish. Takroriy ovoz berish va takroriy saylov. Aholining saylov madaniyatini shakllantirish asoslari. Xorijiy davlatlardagi saylov qonunchiligi va saylov jarayonlari.

#### **11-mavzu. Yangi Konstitutsiyada O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi tarkibi va vakolatidagi o‘zgarishlar**

Oliy Majlisning davlat hokimiyati tizimidagi o‘rni va vazifasi. Oliy Majlisning tarkibiy tuzilishi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatini tashkil etish. Palatalarning huquqiy maqomi va ichki tuzilishi. Palatalarning birgalikdagi va mutlaq vakolatlari. Qonunchilik jarayoni. Qonunchilik tashabbusiga ega bo‘lgan subyektlar. Qonunchilik palatasi deputati va Senat a‘zolarining huquqiy maqomi.

#### **12-mavzu. Yangi qabul qilingan Konstitutsiyada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti maqomi**

Prezident maqomi. Prezidentning saylash tartibi. Prezident vakolatlari. Prezident faoliyatining kafolatlari. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilinadigan normativ-huquqiy hujjatlar. Prezident tomonidan Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Senatini tarqatib yuborish tartibi.

#### **13-mavzu. O‘zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi**

Vazirlar Maxkamasini shakllantirish. Vazirlar Maxkamasi tarkibi. Vazirlar Maxkamasining vazifasi. Mahalliy ijro hokimiyati organlari. Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish tartibi. Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilinadigan normativ-huquqiy hujjatlar

#### **14-mavzu. Erkin va adolatli fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimi**

Mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimi, vazifasi. Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari – davlat hokimiyatining vakillik organi. Mahalliy kengashlarni tashkil etish tartibi, tarkibi, faoliyat shakli. Mahalliy Kengash deputatlarining huquqiy maqomi. Mahalliy ijroiya hokimiyati organlari. Hokim – vakillik va ijro hokimiyati boshlig‘i. Hokimlarni lavozimga tayinlash va lavozimidan ozod etish tartibi. O‘zbekiston Respublikasida sud hokimiyati. Mahallaning maqomi hamda davlat organlarining bu boradagi vazifalari, jumladan, «mahallalarning davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmasligi, joylardagi mahalliy ahamiyatga molik

masalalarni mustaqil hal etish bo'yicha vakolatlari» Konstitutsiyada alohida belgilanishi.

### **15-mavzu. Mudofaa va xavfsizlik**

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari. Qurolli Kuchlarning tuzilishi va ularni tashkil etish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti — Qurolli Kuchlar Oliy bosh qo'mondoni. Aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish. O'zbekiston Respublikasi xavfsizligini ta'minlash, mudofaa sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish, davlat harbiy tuzilishini zamonaviy talablarga muvofiq takomillashtirish, harbiy oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalari faoliyati. Qurolli Kuchlarning tegishli ravishda qurol-yarog'lar, harbiy texnika, harbiy-texnikaviy va ashyoviy mol-mulklar, oziq-ovqat hamda boshqa moddiy-texnika vositalari bilan jihozlanishi va ta'minlanish.

### **III. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi.
2. Konstitutsiya va davlat, konstitutsiyaning printsiplari va xususiyalari, konstitutsiyalarning turlari.
3. O'zbekiston respublikasi tashqi siyosatining konstitutsiyaviy asoslari
4. Inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari
5. O'zbekistonda fuqarolik va uning konstitutsiyaviy asoslari.
6. O'zbekistonda fuqarolar burchlarining konstitutsiyaviy asoslari
7. Jamiyatning iqtisodiy negizlari
8. Fuqarolik jamiyati institutlari
9. Oilaning konstitutsiyaviy asoslari
10. O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi
11. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
12. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti
13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi- ijro etuvchi hokimiyat.
14. Sud hokimiyati
15. Mudofaa va xavfsizlik

### **IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

- esse – dolzarb mavzu bo'yicha shaxsiy fikrini tanqid, publitsistik va boshqa janrlarda yozma bayon qilish;
- dokladlar tayyorlash;
- kurs ishi yozish;
- konspekt yozish;
- glossariy tuzish;

- individual va guruhiy o'quv loyihasi;
  - keys-topshiriqlarini bajarish;
  - mavzuli portfoliolar tuzish;
  - axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash;
  - manbaalar bilan ishlash;
  - infografika tuzish;
  - chizma-tasviriy modellar (intellekt-kart, freym, mantiqiy graf va h.k.) yaratish;
  - multimediali taqdimotlar yaratish;
  - darslarning metodik ishlanmalarini tayyorlash;
  - darsdan tashqari mashg'ulotlar ishlanmalarini tayyorlash;
- ta'lim yo'nalishi(mutaxassislik)ning xususiyatidan kelib chiqqan holda mustaqil ishlarning boshqa turlaridan foydalanish mumkin.

### **V. Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi.
2. Yangi O'zbekistonda Konstitutsiyaviy islohotlar.
3. Yangi Konstitutsiya tuzilishi.
4. Konstitutsiyaning mohiyati
5. Konstitutsiyalarni turkumlarga (turlarga) bo'lish (klassifikatsiyalash)
6. Formal va moddiy Konstitutsiya. Yuridik va amaliy Konstitutsiya.
7. Konstitutsiyaning yuridik xususiyatlari .
8. Konstitutsiyaning yuridik mazmuni .
9. Konstitutsiyaning funksiyalari .
10. Konstitutsiyaning tuzilishi
11. Konstitutsiya va davlat, konstitutsiyaning printsiplari va xususiyalari, konstitutsiyalarning turlari.
12. O'zbekiston respublikasi tashqi siyosatining konstitutsiyaviy asoslari
13. Inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari
14. O'zbekistonda fuqarolik va uning konstitutsiyaviy asoslari.
15. Jamiyatning iqtisodiy negizlari
16. Konstitutsiya loyihalarini tayyorlash
17. Konstitutsiyani qabul qilish usullari
18. O'zini-o'zi nazorat qilish savollari
19. Konstitutsiyaviy–huquqiy normalar tushunchasi va ularning o'ziga xos xususiyatlari
20. Konstitutsiyaviy-huquqiy normalarning tuzilishi va turlari
21. Konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlar, ularning subektlari, obektlari va turlari
22. Konstitutsiyaviy huquqning manbalari
23. O'zini - o'zi nazorat qilish savollari
24. O'zbekiston respublikasi davlat suvereniteti
25. O'zbekiston respublikasidaxalq hokimiyatchiligi
26. Xalq – davlat hokimiyatining birdan-bir manbayi
27. Konstitutsiya va O'zbekiston xalqi

	<p>28. Referendum – bevosita demokratiya shakli</p> <p>29. O‘zbekiston Respublikasida davlat hokimiyatining bo‘linish prinsipi</p> <p>30. Siyosiy va mafkuraviy xilma-xillik – demokratiya sharti</p> <p>31. Xalq hokimiyatchiligi va umuminsoniy qadriyatlar</p> <p>32. Ijtimoiy adolat va qonuniylik – demokratiyaning muhim sharti</p> <p>33. Konstitutsiya va qonunning ustunligi</p> <p>34. O‘zbekiston respublikasi tashqi siyosatining konstitutsiyaviy asoslari</p> <p>35. O‘zbekiston – xalqaro huquq subekti</p> <p>36. O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy tamoyillari</p> <p>37. O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining huquqiy asoslari</p> <p>38. O‘zbekistonning xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar bilan hamkorligi</p> <p>39. Inson va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarining tushunchasi</p> <p>40. Fuqarolarning qonun oldida tengligi konstitutsiyaviy tamoyilining mohiyati</p>
3.	<p style="text-align: center;"><b>VII. Ta’lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:</b></p> <p>- “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi” fanining tushunchasi, kategoriyasi va asosiy prinsiplarini, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosiy bo‘limlarining mohiyatini, O‘zbekistonda davlat va huquqiy rivojlanish xususiyatlarini bilish, O‘zbekiston Respublikasi davlat tuzilishi va boshqaruv shaklini bilish, O‘zbekiston Respublikasida inson va fuqaroning majburiyat va erkinliklari asosiy huquqlarini bilish, ularni himoya qilish usullari va cheklash imkoniyatlarini, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish, davlat organlari tizimini va ularning faoliyati prinsiplarini, davlat va jamiyat xayotida konstitutsiyaning ahamiyatini bilish, asosiy huquqiy aktlarni mazmunini bilish, konstitutsiyaviy tartibga solishning predmet va metodini bilish, konstitutsiyaviy huquqning fan sifatida shakllanishi va rivojlanishining, davlat tuzilishining tavsifini, davlat va shaxs, davlat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning asosiy konstitutsiyaviy prinsiplari, davlat hokimiyati tizimining faoliyati va shakllanishi, bevosita demokratiya shakllarini amalga oshirish, konstitutsiyaviy odil sudlovni amalga oshirish haqida <b>tasavvurga ega bo‘lishi; (bilim)</b></p> <p>- Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining xususiyatlarini to‘g‘ri anglash, jamiyatda bo‘layotgan siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni konstitutsiyaviy qonunchilik bilan bog‘lay olish, konstitutsiyaviy-huquqiy normalarni sharhlashni, konstitutsiyaviy-huquqiy analiz haqida taassurotga ega bo‘lish, hujjatlarni tuzishni bilish, uning amalga oshirish asosiy metodlarini tahlil qilish hamda konstitutsiyaviy qonunchilik sohasidagi normativ aktlar ustida ishlash uchun kerakli materiallarni tayyorlash, konstitutsiyaviy normalarni yetkaza bilish, konstitutsion-huquqiy boshqarish haqida bilishi va ulardan foydalana olishi; <b>(ko‘nikma)</b>.</p> <p>- Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining analizni bilish, o‘qish davomida olgan bilimlarni kasbiy va jamiyat-siyosiy faoliyatda ijodiy qo‘llay bilish, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida kafolatlangan asosiy huquq va</p>



	<p>erkinliklarni professional faoliyatida, mamlakatning jamiyat va davlat hayotida ishtirok etishda kvalifikatsion va professional qo‘llay bilish, Konstitutsiyaning asosiy qoidalari bo‘yicha tushuntirish ishlari olib bora olish, nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llay olish, konstitutsiyaviy huquqning zamonaviy uslublarini qo‘llay olish haqida <b>malakalarga ega bo‘lishi kerak.</b></p>
4.	<p style="text-align: center;"><b>VIII. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma’ruzalar;</li> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• seminarlar ( mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• taqdimotlarni qilish;</li> <li>• individual loyihalar;</li> <li>• jamoa bo‘lib ishlash va hioya qilish uchun loyihalar</li> </ul>
5.	<p style="text-align: center;"><b>IX. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha variantlar asosida yozma topshiriqlarni bajarishi zarur.</p>
6.	<p style="text-align: center;"><b>X. Asosiy adabiyotlar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T. Sharq. 2023y</li> <li>2. Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezoni. O‘quv-uslubiy majmua / Mualliflar jamoasi: Q.Q.Quronboev, X.T.Azizov, M.B.Bekmurodov va boshq. – Toshkent, 2020 y. – 221 b.</li> <li>3. A.X.Saidov va boshqalar Konstitutsiyaviy huquq Darslik. T. «Complex Print» nashriyoti .-2019.</li> <li>4. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh. Mualliflar jamoasi – T.: TDYUI nashriyoti, 2012. – 649 b.</li> <li>5. Xusanov O.T. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi // Darslik – T.: TDYUI nashriyoti, 2012. – 564 b.</li> <li>6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.05.2023 y. PF-67-son "Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi Farmoni</li> <li>7. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 28.08.2020 yildagi O‘RQ-635-son O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida</li> <li>8. O‘zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi (O‘zR 25.06.2019 y. O‘RQ-544-son Qonuni bilan tasdiqlangan)</li> </ol> <p style="text-align: center;"><b>XI. Qo‘shimcha adabiyotlar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari.</b></p>

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (Yangi tahriri, O‘zR 30.04.2023 y. referendumda qabul qilingan, O‘zR 01.05.2023 y. O‘RQ-837-son Konstitutsiyaviy Qonuniga muvofiq tasdiqlangan)
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 13.12.2019 y. PQ-4551-son "Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta‘minlash, bu borada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi Qarori
3. O‘zbekiston Respublikasining 01.05.2023 y. O‘RQ-837-son "O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida"gi Konstitutsiyaviy Qonuni (30.04.2023 y. O‘zbekiston Respublikasi referendumida qabul qilingan)/SH.M.Mirziyoyev. – Toshkent: "O‘zbekiston", 2017. – 48 b.
4. O‘zbekiston respublikasi Oliy sudi Plenumining 23.06.2023 y. 16-son "Odil sudlovni amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida"gi Qarori
5. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Yangi O‘zbekiston strategiyasi.- Toshkent, 2021. -458 b.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.05.2023 y. PF-67-son "Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi Farmoni
7. Shavkat Mirziyoev Konstitutsiyaga qanday o‘zgartirishlarni taklif qildi? <https://www.gazeta.uz/uz/2022/06/21/president-suggestions/21> iyun 2022 y
8. «Miranda qoidasi» va «Xabeas korpus» tamoyillarini Konstitutsiyada aks ettirish taklif qilindi. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/06/20/suspect/>
9. "Miranda qoidasi" va "Xabeas korpus" instituti –huquqlarimizning muhim konstitutsiyaviy kafolati. <https://yuz.uz/news/miranda-qoidasi-va-xabeas-korpus-instituti-huquqlarimizning-muhim-konstitutsiyaviy-kafolati>. 23 mart 2023
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.11.2018 y. PQ-4004-son "O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi Qarori
11. O‘zbekiston Respublikasining 04.09.2019 y. O‘RQ-563-son "Saylov to‘g‘risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida"gi Qonuni.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.10.2018 y. PQ-3961-son "Saylov jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Qarori.
13. O‘zbekiston Respublikasining 08.02.2021 y. O‘RQ-670-son "Saylov qonunchiligi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida"gi Qonuni.
14. O‘zbekiston Respublikasining 25.06.2019 y. O‘RQ-544-son "O‘zbekiston Respublikasining Saylov kodeksini tasdiqlash to‘g‘risida"gi Qonuni.

	<p>15. O‘zbekiston Respublikasining 31.05.2021 y. O‘RQ-691-son "O‘zbekiston Respublikasining Saylov kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida"gi Qonuni.</p> <p>16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.09.2021 y. PF-6312-son "O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Farmoni.</p> <p>17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy majlisga Murojaatnomasi (2020 yil 29 dekabr)</p> <p>18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.09.2017 y. PQ-3294-son "O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisidagi vakolatli vakili lavozimini joriy etish to‘g‘risida"gi Qarori.</p> <p>19. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi (O‘zR Prezidentining 28.01.2022 y. PF-60-son Farmoni.</p> <p>20. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 11.05.2001 yildagi 211-II-son "Mudofaa to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni</p> <p style="text-align: center;"><b>Axborot manbalari</b></p> <p><a href="http://www.edu.uz">http://www.edu.uz</a>–O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi sayti.</p> <p><a href="http://www.uzedu.uz">http://www.uzedu.uz</a> – O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi sayti.</p> <p><a href="http://www.gov.uz">http://www.gov.uz</a>– O‘zbekiston Respublikasi xukumati portali.</p> <p><a href="http://www.pedagog.uz">www.pedagog.uz</a></p> <p><a href="http://www.tdpu.uz">www.tdpu.uz</a></p> <p><a href="http://www.pedagog.uz">www.pedagog.uz</a></p> <p><a href="http://www.edu.uz">www.edu.uz</a></p> <p><a href="http://www.natlib.uz">www.natlib.uz</a> (A.Navoiy nomidagi O‘z.MK)</p> <p><a href="http://www.ziyonet.uz">www.ziyonet.uz</a> - Ziyonet axborot-ta’lim resurslari portal</p> <p><a href="https://lex.uz/docs/LLB Law (2026 entry)   The University of Manchester">https://lex.uz/docs/LLB Law (2026 entry)   The University of Manchester</a></p>
7.	Fan dasturi Qo‘qon davlat universiteti tomonidani ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2025-yil 30-iyundagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan.
8.	<p><b>Fan/modul uchun mas’ul:</b>  E.Oripov – Qo‘qon DU, Milliy g‘oya va huquq kafedrasini mudiri, (PhD).  Sh. Xudoyberganov – Qo‘qon DU, Milliy g‘oya va huquq kafedrasini o‘qituvchisi</p>
9.	<p><b>Taqrizchilar:</b>  T.Madumarov – ADU, Ijtimoiy-iqtisodiyot fakulteti dekani, yu,f,d, professor</p>

